

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.X.Hakimov, A.A.Abdumalikov, Ё.З.Нуриддинов Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.).....	5
D.E.Normatova, S.N.Muxammadova Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari.....	12
N.M.Axmadiyev Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	15
Д.А.Исаева Влияние медиа на развитие античной философской мысли	18
I.A.Asatulloev Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati	22
O.B.Shokirov Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	28
R.B.Abduraxmonov Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	31
X.J.Toshpo'latov Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari.....	35
A.I.Abdullaxo'jaev Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil	38
I.T.Yuldashev Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili	42
A.A.A'zamjonov Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari.....	46
M.K.Soipova Fazl Ibn Ahmad ta'limotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili	50
S.F.Abdusattarova Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society.....	54
S.R.Xoldarov Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari	59
Sh.B.Samanova Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni.....	65
R.Orziboyev G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili.....	69

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdagi imkoniyatlar	73
Ф.М.Бафоев Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике	79
A.To'xtasinov Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	83
U.U.Sattarov O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar.....	87
B.T.Shokirov Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar	93



DIALEKTIKANING PAYDO BO'LISHI VA UNING NAMOYANDALARI

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ДИАЛЕКТИКИ И ЕЁ ПРЕДСТАВИТЕЛИ

EMERGENCE OF DIALECTIC AND ITS EXAMPLES

Normatova Dildor Esonaliyevna¹ ¹Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodiMuxammadova Sevaraxon Nazirjon qizi² ²Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada dialektika va uning paydo bo'lishi, ta'limotning ko'zga ko'ringan namoyandalari va ularning qarashlari yoritilgan. Shuningdek, keyingi asrlarda dialektika, idrok inson faoliyatining barcha sohalariga – fanga, sanoatga asta-sekin kirib kelganligi bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируется возникновение диалектики и взгляды её представителей. Также, изложено постепенное проникновение диалектики в сферы человеческой деятельности: в науку, промышленность.

Abstract

This article describes the dialectic and its emergence, prominent representatives of the doctrine and their views. It is also stated that in the following centuries, dialectics and perception gradually entered all areas of human activity - science, industry.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, dunyoqarash, donishmandlik, barqarorlik, aforizm, mantiq, idealistik dialektika, sharq falsafasi.

Ключевые слова: развитие, мировоззрение, мудрость, стабильность, афоризм, логика, идеалистическая диалектика, восточная философия.

Key words: development, outlook, wisdom, stability, aphorism, logic, idealistic dialectic, eastern philosophy.

KIRISH

Dialektika tushunchasi falsafa tarixida dastlab hozirgi ma'nosidan boshqacha tushunilgan. Yunon falsafasida dialektika muxolifning muhokamasidagi ziddiyatlarni ochib tashlash, munozara orqali haqiqatni topish san'atini anglatgan. Keyinchalik bu usul tabiat hodisalariga tatbiq etila boshlagan, bilish uslubiga aylangan. Dialektika so'zi ilk bor Suqrot tomonidan qo'llanilgan. U dialektikani bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlar to'qnashuvi orqali haqiqatni topish san'ati deb bilgan. Odatda olamning taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi to'g'risidagi ta'limot dialektika deb ataladi. Qadimda dialektika suhbat, bahs-munozara vositasida haqiqatni ochish yo'li va usuli sifatida talqin qilingan. Taraqqiyotning dialektik tizimi XV asr muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa ham, hozirga qadar jamiyat amaliy faoliyatini idrok qilish va ilmiy mushohada qilish asosida muntazam ravishda chuqurlashib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu doirasida qator olimlar ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirganlar. Jumladan, I.Suvanov tomonidan "Dialektika natsionalnoy ide'i" nomli, O'zR FA akademigi, professor J.Tulenovning "Dialektika nazariyasi" nomli asari dialektika ta'limotining rivojlanish tarixi, uning mohiyati, tamoyillari, olamni falsafiy anglashda dialektika qonuni va kategoriyalarining ahamiyati, ilmiy bilish va amaliyotdagi roli, bilish jarayonining dialektikasi, shuningdek, ijtimoiy taraqqiyot dialektikasi, jamiyatni ilmiy bilish va boshqarishda dialektikaning roli va ahamiyati tahlil qilingan, shuningdek, rossiyalik olimlar ham ushbu mavzuga bag'ishlangan qator ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishgan, jumladan, Platonenko, Olga Mixaylovna tomonidan "Dialektika kak atribut filosofskogo teoreticheskogo mishleniya" nomli Gorbachev Nikolay Andreyevich tomonidan

“Materialisticheskaya dialektika kak metodologiya nauchnogo ateizma”, A.N.Jurina tomonidan “Dialektika perexoda ot klassisizma k

TAHLIL VA NATIJALAR

Fanda dialektikaning asoschisi sifatida Efeslik Geraklit (taxminan 544-483y) hisoblanadi. Geraklit – yunon faylasufi. Oliy aristokratlar oilasida dunyoga kelgan. Falsafa tarixida birinchi bo'lib ob'yektiv dialektika tamoyillarini ko'rsatib bergan. Uning dunyoqarashiga Sharq falsafasi, xususan zardo'shtiylik falsafasi jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Geraklit asarlarida zardo'shtiylik, “Avesto”da bayon etilgan g'oyalarga, qadimgi hind Upanishadlarga oid lavhalar uchraydi. U bu kitobni juda murakkab tilda, ilmning mag'zini chaqa oladigan, farosatli va dono kitobxonlarga mo'ljallab yozganligini aytadi. Geraklit tizimi uning «Tabiat haqida» deb nomlangan asarida bayon qilingan. Bu kitob boshqa ilk faylasuflar asarlari kabi bizgacha to'liq saqlanib qolmagan. Shuning uchun, uning qarashlarini asarlaridan bizgacha yetib kelgan parchalari, donishmand zamondoshlari asarlarida zikr qilingan uning fikrlari asosida tiklash mumkin. Shunday parchalardan 130 donasi bizgacha yetib kelgan.

Efeslik Geraklitning falsafiy qarashlarida uchta asosiy narsani ajratish mumkin:

- butun olamning o'zgaruvchanligi to'g'risidagi ta'limot;
- olov olamning birlamchi asosi negizi deb tushunish;
- qarama-qarshiliklar birligi va kurashi to'g'risidagi ta'limot.

Narsalarning umuman o'zgaruvchanligi to'g'risidagi tasavvur Geraklitning maqol tariqasida jahonda tarqalgan ikkita iborada ifoda etilgan: «Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaradi», «bitta daryoga ikki marta tushishning iloji yo'q». Ikkinchi ibora aslida birinchisining tasdig'i, isbotidir. Daryoga ikkinchi marta tushganimizda biz haqiqatda boshqa daryoga tushayotgan bo'lamiz, chunki birinchi marta tushganimizdagi suv allaqachon oqib ketgan bo'ladi va orqaga qaytmaydi. Bu olamning o'zgaruvchanligining isbotidir.

O'zgaruvchanlikning yana bir isboti «Har kuni yangi quyosh chiqavermaydi, lekin quyosh o'zi muntazam ravishda yangilanib to'xtovsiz o'zgarib boradi». Shunday qilib, tinimsiz harakat va o'zgaruvchanlik, Geraklit ta'kidlaganday, olamning asosiy xususiyatidir. Geraklitning ba'zi bir izdoshlari narsalarning umumiy o'zgaruvchanligi ahamiyatini shunchalik oshirib yubordilarki, ular aslida bitta daryoga hatto bir vaqtning o'zida bir marta ham tushib bo'lmasligini ta'kidlaganlar. Keyingi olimlar bu tushunchada umumiy o'zgaruvchanlik g'oyasiga ortiqcha darajada ahamiyat berilgan degan xulosaga keldilar.

Hozirgi zamon fanida tabiat va jamiyatda hamma narsa tinimsiz o'zgarib turmaydi, barqarorlik, muqimlik va o'zgaruvchanlik o'rtasida doimiy muvozanat saqlanib turishi isbotlangan. Masalan, Ch.Darvin irsiyatda muvofiqlikni (ya'ni biologik turlarning muqimligini), evolyusiya jarayonida o'zgarib borishini tadqiq qilgan. Inson ham butun umri davomida muntazam o'zgarib boradi. Shu bilan birga insonning butun hayoti davomida o'xshashlik, muqimlik ham saqlanib qoladi. Olamning o'zgaruvchanligini ortiqcha baholash, muqimlikka yetarli ahamiyat bermaslik fanda relyativizm (lot. relativus - nisbiy) deb ataladi. Uning teskarisi o'zgaruvchanlikka yetarli ahamiyat berilgan muhimlikning ortiqcha baholanishi ham fan tarixida uchraydi. Bu hol XIX asrda metafizika deb atala boshladi.

Metafizika barcha mavjudotning o'zgarmasligi, muhimligi olamning taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi to'g'risidagi ta'limot – dialektikaga ziddir. Voqelikka dialektik va metafizik qarashlar o'rtasidagi munozaralar Geraklit va o'zgaruvchanlikka nisbatan umuman teskari munosabatda bo'lgan Eleyalik mutafakkirlar ta'limotidan boshlanib, butun falsafa tarixi davomida olib borilmoqda. Geraklitning ikkinchi bir asosiy g'oyasi – olovga barcha narsalarning birlamchi asosi sifatida qarashi. Geraklit doimiy o'zgarish g'oyasiga Milet maktabi vakillariga nisbatan ancha jiddiy ahamiyat bergan. Shuning uchun, yunonlarga yaxshi tanish bo'lgan eng o'zgaruvchan narsani – olovni birlamchi asos deb hisoblagan. Darhaqiqat, suvdan, apeyrondan, havodan farqi o'laroq olov har zumda o'zgarib turadi. U umuman bir lahzaga ham harakatsiz, muqim tura olmaydi. Olov – o'zgaruvchanlik g'oyasini isbotlovchi eng yorqin timsol.

Barcha narsaning asosiy negizini olov tashkil qiladi degani barcha narsalar ham olov kabi har lahzada o'zgarib turadi, biri ikkinchisiga aylanib qola oladi deganidir. Faqatgina olov sof holda bu ishni juda tez, boshqalar esa sekinroq amalga oshiradi. Geraklit shunday deb yozadi: Bu barcha uchun birday koinotni hech qanday iloh, hech qanday inson yaratmagan, u asta yonib, o'chib turadigan abadiy tirik bo'lgan bor va bo'ladigan olovdir. Olovning boshqa holatlar bilan bog'liqligi

Geraklitning boshqa bir - «Olov yerning qazosi bilan, havo – olovning qazosi bilan, suv – havoning qazosi bilan, yer – suvning qazosi bilan yashaydi» degan iborasi bilan ifodalanadi.

Geraklit falsafasining o'zidan keyingi donishmandlarning havasini keltirib hayratga solgan eng chuqur qatlamlari mazmuni – bu uning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi to'g'risidagi tasavvuri edi. Bu yunon mutafakkiri barcha narsalar o'zgarishini ta'kidlabgina qolmay, bu o'zgarishlarning sababini va tarzini (mexanizmini) tushuntirishga ham harakat qilgan. Buyuk so'z ustasi, mumtoz faylasuf Suqrot ham uning Geraklitning asari to'g'risidagi fikrini so'raganlarida shunday degan: «Mening tushunganim – juda yaxshi, tushunmaganim ham ajoyib bo'lsa kerak, lekin, aslida bunday kitobni tushunish uchun Deloslik suvga sho'ng'uvchilardan bo'lish kerak». (Delos orolidagi suvga sho'ng'uvchilarning shuhrati to'g'risida boshqa antik mualliflarning ham yozuvlari mavjud). [Diogen Laersiy, O jizni, ucheniyax i izucheniyax znamenitых filosofov. A.N. SSSR, SSSR fanlar Akademiyasi ijtimoiy, iqtisodiy adabiyot nashriyoti. Moskva, 1979, 40-bet]. Masalan, hatto «qarama-qarshilik» degan so'zning o'zi bo'lmagan. Lekin asrlar osha uning g'oyalari borgan sari tiniqlashib, borliqning yalpi o'zgarishi, barcha narsalar qarama-qarshiliklar birligi va kurashi to'g'risidagi aytganlari tabiat, jamiyat va ong taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limot – dialektikaning asosini tashkil qiladi. XIX asrda dialektikaning Markaziy qonuni – ziddiyatlar qonuni (Gegel iborasi) yoki qarama-qarshiliklar birligi va kurashi (markschilik iborasi) deb atala boshladi. Dialektikaning ikkita boshqa qonunini Geraklit shakllantira olmadi. Lekin, uning tomonidan aytilgan g'oyalar shunchalik chuqur ediki, XV asrdan so'ng buyuk nemis faylasufi G.F.Gegel (1770-1831y) shunday deb yozgan: «Geraklitning men o'z mantig'imda qabul qilinmagan birona ham qoidasi, me'yori yo'q». (Gegelning «Fan mantig'i» degan asosiy falsafiy asari nazarda tutilgan).

Hozirgi paytda Geraklitning dialektikasini o'ta sodda, o'zicha, stixiyali ravishda vujudga kelgan, chunki u faqat oddiy ongagina suyanib tabiatni kuzatish natijasi edi xolos, maxsus ilmiy ta'kidlar emas deb aytadilar. Yunon mutafakkirining g'oyalari qat'iy ilmiy iboralar emas, matallar, maqollar, aforizmlar shaklida yozilgan, chunki uning davrida fan, ilmiy til endigina shakllanayotgan edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keyingi asrlarda dialektika, idrok inson faoliyatining barcha sohalariga – fanga, sanoatga asta-sekin kirib keldi. XIX-XX asrlarda bu ta'limotning yetukroq tariqatlari barpo qilindi. Bu Gegelning idealistik dialektikasi, Marksning materialistik dialektikasi, ekzistensial dialektika, salbiy dialektika, farqlar dialektikasi va boshqalar. Hozirgi paytda dialektika tizimi insoniyat madaniyatining keng qatlamlariga: texnika va tabiatshunoslik tarixiga, sanoat tarixiga, iqtisodiy va gumanitar (insonparvar) fanlarga, ijtimoiy hayot amaliyotiga, zamonaviy tabiatshunoslikning asosiy nazariy konsepsiyalariga suyanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сартр Ж.П. Бытие и ничто: Опыт феноменологической онтологии. – М.: Республика, 2000.
2. Сартр Ж.П. Проблемы метода. – М.: 1994
3. Спиркин А.Г. Философия: учебник. – М.: Гардарики, 1999
4. Скирбекк Г. Фалсафа тарихи: Ўқув қўлланма / Г.Скирбекк, Н.Гиле. -Т.: Шарқ, 2002. 717 бет.
5. Normatova, D. (2022). Methods, Factors and Directions of Moral Education. International Journal of Culture and Modernity, 14, 86-91.
6. Normatova, D. (2021). Issues of Man and Humanism In Renaissance Literature And Art In Europe. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal
7. Normatova, D. (2022). Revealing morality in the lives of people in the East
8. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)
9. Николай Кун. Легенды, мифы Древней Греции. 98-бет.